

**KUNGABOQAR UZUNMO'YLOV QO'NG'IZI AGATHANTHIA DAHLI (RICHT.)  
NING BIOEKOLOGIK VA ZARAR KELTIRISH XUSUSIYATLARI****Ma'rupov Akmaljon Akbarovich***FarDU o'qituvchi***Omonova Sevara Akramjonovna***FarDU o'qituvchi*

**Annotatsiya:** *Maqolada kungabor o'simligining asosiy zararkunandasi hisoblangan Agathantia dahli xaqida ma'lumotlar bayon etilgan. Mazkur hasharot kungaboqar poyasini shikastlab jiddiy zarar keltiradi. Lichinkalari tuproq ostida qishlaydi. Mazkur qo'ng'izlar zarari tufayli o'simlik poyalari sinib ketishi va hosildorlik pasayishi kuzatiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Polsha, kungaboqar, elytra, segment, antenna, lichinka g'umbak, Cerambycidae, Agapanthia, runiniya.*

**KIRISH**

Uzunmo'ylov qo'ng'izlar orasiga ksilofag turlaridan tashqari o't o'simliklar poyasi va ildiz qismida uchrovchi turlari ham mavjud. *Agathantia dahli* tabiiy sharoitda tekislik, tog', o'tloq va dasht hududlarining o'simliklari qushqo'nmas, kovrak o'simliklariga uchraydi. Agrosenzlarda oddiy kungaboqar va kanop o'simliklarida uchrab jiddiy zarar keltiradi. Mazkur qo'ng'izlar Cerambycidae oilasi, Agapanthia urug'iga mansub hasharotlardan biri hisoblanadi.

Kungaboqar uzunmo'ylov qo'ng'izi Yevropa, Ispaniya, Fransiya, Belgiya, Shveysariya, Germaniya, Avstriya, Polsha, Chexiya, Slovakiya, Vengriya, Sloveniya, Xorvatiya, Serbiya, Albaniya, Ruminiya, Bolgariya, Gretsiya, Turkiya, Ukraina, Belorussiya, Rossiya, Shimoliy Eron, Mo'g'uliston, Qozog'iston va O'zbekiston hududlarida tarqalgan [1, 2, 5, 11, 15, 21].

Shimoliy Amerikadan Yevropaga moyli o'simlik sifatida kungaboqar olib borib ekilgan va shu o'simlik orqali Yevropada ham zararkunandalar tarqalgan.

**Material va tadqiqot uslublari.** Qo'ng'izlarning tana uzunligi erkak va urg'ochi qo'ng'izlarda bir-biridan farq qiladi. Erkaklari 11,5-20 mm, tana kengligi 2,4-4,5 mm atrofida, urug'ochilari esa tana uzunligi 12,4-18 mm tana kengligi esa 3,2-4,5 mm bo'ladi. Bundan tashqari, erkak va urg'ochi jinslari tanasida tuklarning siyrakligi bilan ham farq qiladi. Elitra rangi qoramtir bo'lib ustki qismi, sariq tuklar bilan qoplangan. Erkak qo'ng'izlarda bu tuklar soni ko'p bo'ladi. Tananing pastki qismida tuklar qalinroq qoplangan, qorin tomoni tuksiz, deyarli dog'lar ham uchramaydi [3, 4, 10, 11, 20].

Bosh qismi pastga biroz egilgan, antennalar 12 bo'g'imli bo'ladi, antennalarning 1-2 segmentlari qora, keyingi bo'g'imlari sarg'ish yoki qizil-sariq, apikal qismida qora bo'ladi, 3-4 va ba'zan 5-segmentlarining ichki tomonida qoramtir tuklar bo'ladi. Erkak qo'ng'izlarning mo'ylovlari tanasidan 1,5 marta, urg'ochi qo'ng'izlarda esa tana uzunligi bilan teng yoki 1,15 marta uzunroq bo'ladi. Ustki qanoti tana oxiriga nisbatan qarab o'rtacha toraygan, uzunligi, kengligidan taxminan 3 baravar uzun.

Qo‘ng‘izlar boshqa uzunmo‘ylov qo‘ng‘izlardan farqli ravishda kunduzi faol harakatlanadi. Urg‘ochi qo‘ng‘izlar kungaboqar poyasini yerdan 90 sm balandlikdagi poyasini kemiradi va hosil bo‘lgan yoriqlar va teshiklarga 50-60 ta atrofida tuxum qo‘yadi [6, 9, 10, 17, 22, 25].

Qo‘ng‘izlarning faol xarakati va tuxum qo‘yish muddati may oyidan iyulgacha davom etadi. Ular yiliga bir marta avlodlarini berib ko‘payadi. Ayrim tog‘li hududlarda generatsiyasi ikki yil davom etishi ham mumkin.

Lichinkalar barcha uzunmo‘ylov qo‘ng‘izlar lichinkasi singari chuvalchangsimon, oyoqsiz, bosh qismi nisbatan yog‘onroq, keyingi segmentlari bir xil bo‘ladi. Voyaga yetgan lichinkaning uzunligi 30-35 mm atrofida (1-rasm).

Lichinkalar poya ichida yashab, poya ichki o‘zak qismidan tashqari poya sirtigacha bo‘lgan qismlarini yeb zarar keltiradi.


Lichinka poya ichida pastga qarab kemiradi. Qishlashdan oldin poyaning ichiga 70-80 sm balandlikda g‘umbak uchun beshikcha quradi. Ayrim holatlarda beshikcha o‘simlikning ildiz qismiga ham qurishi mumkin. Lichinkalarning bir qismi keyingi bahorda may-iyun oylarida g‘umbak hosil qilishi mumkin. G‘umbaklari 20-21 kun davomida rivojlanadi.

Ayrim lichinkalar keyingi mavsumgacha poyada qishlaydi. G‘umbaklar bahorda sodir bo‘ladi va kattalar qo‘ng‘izlar yozda paydo bo‘ladi. Urg‘ochi tomonidan yasalgan chuqurchalarda tuxumdan chiqqan oq lichinkalar poya ichiga ko‘tariladi. Bu yerda ular tepadan ildizgacha harakat qilishadi. Shu bilan birga, ular poyaning yadrosini va qisman devorlarini kemiradilar. Lichinka butun hayotini bir poya ichida o‘tkazadi. Avgust oyining oxirida u o‘zining poydevoriga etib boradi, keyin esa sentabrda u ildizning tepasiga kirib, u yerda qishlaydi.

### **XULOSA**

So‘nggi yillarda kungaboqar o‘simligi ko‘p ekilishi natijasida zararkunandalar sonini ortishiga sababchi bo‘lmoqda. Zararkunandalar asosan lichinka bosqichida zarar yetkazadi. Ayniqsa o‘simlikni kech ekish sanalarida kungaboqar jiddiyroq zarar ko‘radi. Lichinkalar tomonidan shikastlangan o‘simliklarning poyasi tez-tez sinadi, urug‘larning hosildorligi va ulardagi yog‘ miqdori kamayadi. Ayrim yillari ularning keltiradigan zarari 80-95% ga ham yetishi mumkin [7, 8, 9].

Kungaboqar kasalliklari va zararkunandalariga qarshi kurashning eng muhim chora-tadbirlaridan biri urug‘larni ekishdan 15-20 kun oldin turli kasallik keltirib chiqaruvchilarga va qo‘ng‘izlar lichinkalari qarshi preparatlar bilan ishlov berish talab etiladi. Kungaboqarni kasalliklar va zararkunandalardan himoya qilish tizimi kasallik va hasharotlarga chidamli navlar va duragaylardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Zararkunandalarga qarshi kurashish uchun hosil yig‘ib olingandan so‘ng dalalardan kungaboqar poyalarini to‘liq olib tashlash va keyin chuqur kuzgi shudgorlash almashlab ekish ham muhim samara beradi.



*1-rasm. Kungaboqar uzunmo'ylov qo'ng'izi  
A-voyaga yetgan qo'ng'iz; B-zararlangan kungaboqar o'simligi;  
C-tabiiy sharoitda uchrashi (qushqo'nmas o'simligida); D-lichinkalari;*

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Audinet-Serville 1. O. A. 1835. Nouvelle classification de la famille des longicornes (suite).- Annales de la Société Entomologique de France, 4: 5-100, pI. 3.
2. Danilevsky M.L., Mirosnikov A.I., 1985. Timber-Beetles of Caucasus (Coleoptera, Cerambycidae). Key.- Krasnodar: 419 pp
3. Данилевский М.Л., Мирошников А.И. Жуки-дровосеки Кавказа (Coleoptera, Cerambycidae). Определитель. Краснодар, 1985. 419 с.
4. Костин И.А. Усачи рода *Agarantia* Serv. (Coleoptera, Cerambycidae) фауны Казахстана. Опыт ревизии. / Энтومол. обзор. Т. 57. Вып. 3. 1978. С. 596-605.
5. Мегалов А.А. Значение усача *Agarantia dahli* (Richt.) для культуры подсолнечника и борьба с ним. / Социалистическое зерновое хозяйство № 5-6. Саратов: ВИЗСХ. Краевое Гос. изд-во, 1933. С. 74-80.
6. Плавильщиков Н.Н. Обзор рода *Agarantia* Serv. (Coleoptera, Cerambycidae) фауны СССР. / Сб. Тр. Зоол. Музея МГУ. Ред. А.Н. Желуховцев и Л.В. Зимина. Т. 11. Изд-во МГУ. 1968. С. 113-168.
7. Черепанов А.И. Усачи Северной Азии (Lamiinae: Pterycoptini - Agarantini). Новосибирск: Наука. 1984. 214 с.
8. Ма'рупов А. А. Materials for studying city barbell (Coleoptera, Cerambycidae) //Scientific Bulletin of Namangan State University. - 2021. - Т. 2. - №. 2. - С. 102-110.
9. Марупов А. А. Biology and harmfulness of long-beetled beetles (Coleoptera: Cerambycidae) flowing on poplars //Scientific Bulletin of Namangan State University. - 2021. - Т. 3. - №. 1. - С. 56-61.
10. Маърупов, А. А. (2020). Шахар мўйловдор қўнғизи (Coloptera, Cerambycidae) ни ўрганишга оид маълумотлар. НамДУ илмий ахборотномаси, 2, 102-11

11. Маърупов, А. А., & Сапаров, Қ. А. (2022). Фарғона водийси узунмўйлов кўнғизларининг (Coleoptera: Cerambycidae) экологик-фаунистик таҳлили. *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 100-107.
12. Маърупов, А. А. (2021). Studying city barbell (Coleoptera, Cerambycidae). *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(2), 102-110.
13. Маърупов, А. А., & Зокиров, И. И. (2021). Uzunmo 'ylov qo 'ng 'izlar (Coleoptera: Cerambycidae) faunasiga doir yangi malumotlar. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 603-611.
- 5..Akramjonovna O. S. et al. Uy parmalovchisi (Anobium Pertinax L. ) ning biologiyasi, oziqa manbalari va zarari // Ta'lim fidoyilari. – 2022. – T. 8. – C. 135-140.
- 6..Akramjonovna O. S. Sakkiz nuqtali Skripun Hylotrupes Bajulus Linnaeus , 1758) qo'ng'iziga doir ma'lumotlar // Principal Issues of scientific research and modern education. – 2022. – T. 1. – №. 7.
7. Akramjonovna O. S. et al. Koxsinellidlarining oziqa zanjiridagi o'rni // Ijodkor o'qituvchi.. – 2022. – T. 2. – №. 23. – C. 439-443.
- 8.Akramjonovna O. S. et al. Koxsinellidlar ( Coccinellidae) oilaning o'rganilishi // O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 13. – C. 733-737.
9. Akramjonovna O. S. et al. Qora uy yog'ochqirqarining biologiyasi, ekologiyasi va zarar keltirishi //o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 13. – C. 727-732.
10. Mirzahalilovich Y. M., Akramjonovna O. S. Use of species belonging to the Coccinellidae family and carnivorous beetles against pests //International journal of research in commerce, it, engineering and social sciences issn: 2349-7793 Impact Factor: 6.876. – 2022. – T. 16. – №. 10. – C. 89-99.
11. Akramjonovna O. S. Nuqtali xonqizi stethorus pusillus (Herbst, 1797) ning tarqalishi, biologiyasi va qishlash xususiyatlari //ijodkor o'qituvchi. – 2022. – T. 2. – №. 24. – C. 384-390.
12. Akramjonovna O. S. et al. Karam zararkunandalarining tur tarkibi //ijodkor o'qituvchi. – 2022. – T. 2. – №. 24. – C. 361-367.
- 13.Akramjonovna O. S. Bulaea lichatschovi (Hummel, 1827) xonqizi qong'izining morfologiyasi va tarqalishi //Журнал интегрированного образования и исследований. – 2023. – T. 2. – №. 1. – C. 57-59.
14. Abdukhalilovna, M. M. (2022). Morphological structure of wheat grain with a high level of nutrient content. *International journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, 11(09), 105-108.
15. Abdukhalilovna, M. M., & Davronovich, A. D. (2022). Formation of physical skills that influence the movement system in the growth and development of the children's organism. *international journal of research in commerce, it, engineering and social sciences ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, 16(10), 80-88.
16. Abduxalilovna, M. M. (2022). Moddalar almashinuvi jarayonida kechadigon o'zgarishlarda organizimning roli. *Ijodkor o'qituvchi*, 2(24), 351-356.

17. Abduxalilovna, M. M. (2023). Bug'doy o'simlimligining shakllanish jarayoni va o'stirish texnologiyasi. *Журнал интегрированного образования и исследований*, 2(1), 60-62.
18. Abduxalilovna M. M. Atrof muhit tozaligining inson salomatligiga ijobiy ta'siri //Журнал интегрированного образования и исследований. - 2023. - Т. 2. - №. 1. - С. 69-71.
19. kizi Tuychiyeva X. Z., Turdibekov M. Bioecological characteristics of sophora japonica //Educational Research in Universal Sciences. - 2022. - Т. 1. - №. 7. - С. 146-151.
20. qizi Tuychiyeva X. Z., Turdibekov M. The ecosystem of insects //international conferences. - 2022. - Т. 1. - №. 19. - С. 110-113.
21. qizi Tuychiyeva X. Z. O'simliklarni zararkunanda hasharotlardan himoya qilish usullari //Educational Research in Universal Sciences. - 2023. - Т. 2. - №. 1. - С. 33-39.
22. qizi Tuychiyeva X. Z. Biologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari //international conferences. - 2023. - Т. 1. - №. 1. - С. 378-380.
23. Muhiddinov A., qizi Tuychiyeva X. Z. Jismoniy rivojlanish sog'liqni salash holatini baholashdagi o'rni //GOLDEN BRAIN. - 2023. - Т. 1. - №. 4. - С. 83-87.
24. Маърупов А. А. Шаҳар мўйловдор кўнғизи (Coleoptera, Cerambycidae) ни ўрганишга оид маълумотлар //НамДУ илмий ахборотномаси. - 2020. - Т. 2. - С. 102-110.
25. Ахмедова, З. Ю., Султонов, Д. Ш., Маърупов, А. А., Зокиров, И. И., & Йўлбарсова, И. И. Мева пўстлоқхўр кўнғизининг (scolytus mali bechst.) биоэкологияси ва озуқа спектри. *ёш олимлар ахборотномаси*, 45.
26. Маърупов-ўқитувчи А. А. Катта қайрағоч пўстлоқхўрининг озуқа спектр хусусиятлари //Ўзбекистон республикаси олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги Заҳириддин Муҳаммад Бобур номидаги Андижон давлат университети. - Т. 208.
27. Марупов А. А., Зокиров И. И. Uzunmo'ylov qo'ng'izlar (coleoptera: cerambycidae) faunasiga doir yangi malumotlar //Academic research in educational sciences. - 2021. - Т. 2. - №. 6. - С. 603-611.